

FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA QISHLOQ XO'JALIGINI TIKLASH BO'YICHA SOVET HUKUMATINING OLIB BORGAN SIYOSATI. (1945-1955 YILLAR)

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li

Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası Tayanch Doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794291>

Annotasiya: Ushbu tezisdá Sobiq Sovet Ittifoqining ikkinchi jahon urushidan so'ng xalq xo'jaligini tiklash borasida qabul qilgan qonunlari hamda ularni Ittifoq tarkibidagi respublikalarda amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda asosiy urg'uni paxtachilikka qaratilganligi va kolxozlarni birlashtirish jarayoni Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida qisqacha ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, paxtachilik, kolxozlar, sug'orish tizimi.

Ikkinchi jahon urushida SSSR g'alaba qozongan bo'lishiga qaramay, Sobiq ittifoq hamda uning tasarrufidagi respublikalar har jabhada juda ko'p ziyonga uchradi. Xususan, ikkinchi jahon urushi O'zbekiston SSR ning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy hayotida chuqur salbiy oqibatlarga olib keldi. Avvalo, mamlakat aholisining katta qismi urushda halok bo'ldi, dom daraksiz yo'qoldi yoki yarador bo'lib mehnatga layoqatsiz holatda vataniga qaytdi. Buning natijasi o'laroq, urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini tiklash masalasi keksalar, ayollar va yosh bolalar zimmasiga yuklandi. Undan tashqari, ishlab chiqarish kuchlari asosan harbiy maqsadlarga yo'naltirilib front orti xizmatlariga kirishdi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan maxsulotlar esa front uchun yuborildi. Natijada ikkinch jahon urushidan Sobiq ittifoq respublikalarida iqtisodiyotning agrar sektori chuqur inqiroz ahvolidá chiqdi. Shuning uchun ham urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini tinch qurilishga o'tish jarayoni murakkab kechdi.

1946-yil 18-martda «SSSR xalq xo'jaligini qayta tiklash va rivojlantirishning 1946—1950 - yillarga mo'ljallangan besh yillik plani to'g'risida qonun» qabul qilib, to'rtinchi besh yillik plani loyihasini tasdiqladi. [1, 163 b]

Bu qonun doirasida Sobiq Ittifoq respublikalari miqyosida ish olib borish. Belgilangan plan loyihasini bajarish bo'yicha Ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalarda ham, jumladan O'zbekiston SSR da ham qonun tasdiqlandi. Ya'ni, O'zbekiston xalq xo'jaligini yanada rivojlantirishning 1946—1950 - yillarga mo'ljallangan besh yillik plan terisidagi qonun O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1946 - yil 30 - avgustda ochilgan sakkizinchi sessiyasida tasdiqlandi. Bu besh yillikni bajarish respublikaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi yo'lida yangi katta qadam bo'lishi lozim edi. Planga binoan, O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining hamma tarmoqlariga sarflanadigan kapital mablag'larning umumiy hajmi butun besh yil ichida 3900 million so'mga yetkazilishi, shu jumladan, respublika va mahalliy sanoat tarmoqlari bo'yicha 1266 million so'mni tashkil etishi lozim edi. [1, 163 b]

Ushbu mablag'larni sarflash evaziga markaz keng ko'lamda paxta kompleksini mexanizatsiyalash ishini joriy etish, shuningdek paxtachilikni kerakli mineral o'g'itlar bilan ta'minlash va sug'orish tizimida irrigatsiya qurilishini ko'tarish uchun metallurgiya bazasini, yoqilg'i - energetika bazalarini rivojlantirish va yanada mustahkamlashni talab qildi. Bu jarayon natijasi o'laroq, yangi korxonalar tashkil etish va oldindan mavjud korxonalarni esa quvvat darajasini oshirish nazarda tutildi.

Besh yil ichida sakkizta katta va o'rta gidrostansiyalarni, birinchi navbatda jami 303 ming kilovatt quvvatga ega bo'lgan Farg'ona GESini qurib bitkazish planlashtirildi. [1, 164 b]

Shuningdek, Boshqa Ittifoq respublikalarida ham O'zbekiston SSR da yangi yerlarni o'zlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi va yangi paxtachilik xo'jaliklari tashkil etildi. Xususan, Mirzacho'l bilan birgalikda markaziy Farg'ona yerlari ham faollik bilan o'zlashtirildi. Sovet hokimiyatining agrar siyosati ta'sirida Farg'ona vodiysida paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar va tumanlar tashkil qilindi. Jumladan, Markaziy Farg'onada 1950 - yil 5 - aprelda Bo'z (hozirgi Bo'ston) tumani tashkil qilingan dastlabki yilda oq xo'jaliklar paxtadan hosil olish va rejani bajarish uchun bir qator amaliy ishlar qilindi. [2, 453 b]

Bu besh yillik plan loyihalarida O'zbekiston SSR ning har bir viloyatini rivojlantirishni aniq vazifalari hamda asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Chunonchi, Farg'ona vodiysi viloyatlari paxtachilik, gazlamalar ishlab chiqarish va neft qazib chiqarish, shuningdek pillachilikning asosiy hududlari bo'lishi va Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida ushbu sohalar rivojlanishi lozim edi. Bu jarayonlar ortida nafaqat Farg'ona vodiysida yangi yerlarni o'zlashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi, balki bu hududdagi yer osti boyliklarini qazib olishga, tabiiy gaz zahiralarni topishga ham ahamiyat berildi. Bundan tashqari markaz tomonidan kolxozlarni birlashtirish siyosati ham amalga oshirildi. Mamlakat hududining barcha qismidagi kolxozlarning kichik deb hisoblangan qismi o'zaro qo'shib yuborildi va son jihatdan ko'p kolxozlarni miqdori ozaytirildi. Hududlarini esa o'zaro qo'shib yuborildi. Qo'shib yuborilgan kolxozlarning aksariyat qismi paxta yetishtirish bilan shug'ullangan. Ya'ni Sobiq Ittifoq hukumati O'zbekiston SSR da qishloq xo'jaligi tarmoqlari ichida eng katta urg'uni paxtachilikka berib, imkon qadar ko'proq oq oltinni markazga olib ketish uchun harakat qilgan. Quyida O'zbekiston tarixi kitobining 1939-1991 yillar davrini o'z ichiga oluvchi ikkinchi qismidan ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kolxozlarni yiriklashtirish siyosati natijasida 1951-yilda O'zbekistonda avval mavjud bo'lgan 6399 ta kichik kolxozlar o'rniga 3067 ta yirik kolxozlar tashkil qilindi, shulardan 2798 ta kolxoz paxtachilik bilan shug'ullangan. Kolxozlarda ekin maydonlari sezilarli darajada ko'paydi. Agar avval o'rtacha hisobda bitta kolxozga 378 ga yer maydoni to'g'ri kelsa, shu jumladan 189 ga paxta ekini uchun, endi esa har bitta kolxozga o'rta hisobda 777 ga yer maydoni to'g'ri kelar edi, shulardan 374 ga yer maydoni paxta ekini uchun ajratilgan.

Agar shu siyosat viloyatlar kesimida ko'rib chiqilsa, unda Andijon viloyati quyidagi ko'rinishda bo'lgan: 526 ta kolxozdan birlashgandan so'ng 260 ta kolxoz qolgan. 1949-yilda shu viloyat uchun yer fondi 300-400 ga yer maydoni va paxta ekiniga 250-300 ga birlashtirilgan bo'lsa, endi esa birlashtirilgandan so'ng paxta ekini uchun kolxoz o'rtacha 550-600 ga yer maydoniga ega bo'lgan, ya'ni u ikki marta ko'paygan. [3, 82 b]

Lekin bu jarayonlarda ayrim xatoliklarga ham ul qo'yilgan edi. Ya'ni kolxozlarni birlashtirish ishida shoshqaloqlik tufayli ba'zi kolxozlarni farqlamasdan birlashtirishgandi. Kolxozlarda boshqaruvni mutaxassislikka ega bo'lmagan shaxslar egallagan. Bu jarayon esa ba'zi salbiy oqibatlariga ham olib kelgan. Bu holat yuqoridagi viloyat, ya'ni Andijon viloyatida ham kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi jahon urushidan so'ng Sobiq Ittifoq katta zarar ko'rgan qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish uchun bir necha qonunlar qabul qildi, Ittifoq tarkibidagi respublikalar ham o'z ichki organlarida qanunlar qabul qilib, markazning planlarini bajarish uchun borini berib harakat qilishdi. Bu xalq xo'jaligini rivojlantirish jarayonlari butun

Ittifoq hududida, xususan, O'zbekiston SSR hududida paxtachilikni rivojlantirishga eng katta e'tibor qaratildi va shu sohada texnikalar bilan ta'minlash va mexanizatsiyalash ishlariga yo'naltirildi. Kolxozlarning birlashtirilishi natijasida dehqon xo'jaliklari ham ko'paydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ўзбекистон ССР тарихи. IV том [IV томлик] // бош муҳаррир И.Мўминов - Тошкент.: 1971
2. Г.Хасанбоева - ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН СЎНГ ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА ПАХТА ЯККАҲОКИМЛИГИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455
3. ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ (1917 - 1991 ЙИЛЛАР) ИККИНЧИ КИТОБ 1939 -1991 ЙИЛЛАР.: Тошкент - O'zbekiston - 2019. 82-b